

AHMAD DONISHNING “NAVODIR UL- VAQOE” ASARIDA ODOB -AHLOQ
MASASALARI

Murodaliyeva Shaxnozaxon Maxmudovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Naimov Ismat Nusratullayevich

Ilmiy rahbar

O’sib kelayotgan yosh avlodni kasb hunarga yo’naltirish, to’g’ri kasb egallashga yo’naltirish masalasi faqat hozirgi kunda emas balki azaldan hayotiy ahamiyatli, dolzarb muammolardan biri ekanligini ko’rishimiz mumkin. Farzandlarimizni erta yoshligidan boshlab qiziqishlari, moyillik va qobilyatlarini e’tiborga olib ularni kasb hunarga to’g’ri yo’naltirsak, nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ravnaqiga samarali hissa qo’shadi. Ahmad Donish o’zining “Nodir ul vaqoe” asarida ham ushbu dolzarb masalaga jiddiy e’tibor qaratgan bo’lib, bu fikrlar hozirgi kun uchun ham zarurdir. Muallif yozadi: “Har bir musulmon odam eng avvallo o’ziga zarur bo’lgan ilmlarni o’qishi farzdir. Shundan so’ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar o’rganish lozim.”⁷⁸.

Olim bilim olib kasb egallash uchun barcha fanlarni o’rganishni targ’ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig’ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi. Ahmad Donishning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o’rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o’tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigicha yetkazish, chidam va sabot bilan o’rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o’z davrida to’g’ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini belgilab beradi: ya’ni Ahmad Donish ta’lim tizimini o’z davrida o’quv muassasasi, madrasalarda o’qish, olim, hunarmand shogird tushub yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alloma o’zining “Navodir ul-vaqoe” asarida farzandlari Abdulkarim va Asadulloaga: “... Sizlar chala safar va hazarda yigitlik davriga yetguncha ustlaringda turib odob va ahloq o’rgatay desam hali o’zimizning hamma ishlarim chala safar va hazarda kerakli asbob-uskunalar to’liq emas. Shunday bo’lsa ham otaning bola tarbiyasi bilan shugullanishi albatta lozimdur. Bolaga odob o’rgatish, ilm o’qitish, dastlab ularga aytish va ko’rsatish bilan bo’ladi ”⁷⁹ ushbu fikrlarni bayon qiladi. Ushbu purlukmat nasihatlar bugunning yoshlari va ularni tarbiyasi uchun ham g’oyat dolzarbdur. Farzandni namuna ko’rsatish yo’li bilan tarbiyalash eng to’g’ri yol ekanligini sharq allomalari ham o’z asarlarida ko’p bora ta’kidlagan.

Mutafakkir tirikchilik o’tkazish va unda kasb-kor qilishni ham alohida ta’kidlaydi:

^{1- 78} A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O’zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 154-b

⁷⁹

“ Tirikchilik o'tkazish uchun biror kasbning boshini tutishingiz lozimdur. Har qanday kasb qilmanglar ham uning kengchiligi va torchiligi bo'ladi”⁸⁰. Ahmad Donish har bir yugitni balogat, o'spirinlik paytida biror hunarni o'rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tadbiiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'yimgo'I lozim deb hisoblaydi. Yana yozdilarki: “ Dunyodan foydalanish ucun kasb va harakat qilsinlar, bu bilan yer yuzi obod bo'lsin. Har kim o'z rizqini tayyorlash uchun harakat qilishi lozim. Bu harakat bilan har biro odam madaniy dunyosiga xizmat qilgan bo'ladi”⁸¹. Ahmad Donish kishi hunar egallash orqali sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolilik kabi insoniy sifatlar shakllanishini uqtiradi.

Ahmad Donish inson biror kasbni egallasa o'zi va jamiyat uchun alohida xizmat qilashini ta'kidlaydi: “ Dunyodan foydalanish ucun kasb va harakat qilsinlar, bu bilan yer yuzi obod bo'lsin. Har kim o'z rizqini tayyorlash uchun harakat qilishi lozim. Bu harakat bilan har biro dam madaniy dunyosiga xizmat qilgan bo'ladi”⁸².

Ahmad Donish kasb tanlash, kasbga yo'naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, uning mudarrislik- muallimlik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e'tibor berganligini ko'ramiz: “ Kunduz kuni muallim o'z o'quvchilari bilan mashg'ulotda band bo'ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg'ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo'yi o'qiydi va o'z kasbi bilan mutassil tanaffussiz shug'ullanadi”⁸³. Ahmad Donishning fikricha, muallimli mashaqqatli va sharafli kasb, bu kasb egalari har qancha hurmat va ehtiromga sazovor, lekin ularni orasida ham bu kasbni shunchaki tirikchilik manba iga aylantirib olganlar ham topiladi. Talabalarning bilim olishning istamasligi va zerikishi mudarrisning uquvsizligidandir, chunki bunday mudarris-tarbiyachilar ta'lim usullarini notog'ri qo'llash bilan talabalarning bilimga qiziqishini so'ndiradi. Mudarris, avvalambor, o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinmay ishlashi, bilimlarini takomillashtirib borishi, darslarni yuqori saviyada bo'lishiga davat etadi.

U muallimlarni talabalarga ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular o'zlaridagi ahloqiy buzqlikni yosh avlod o'rtasida tarqatadilar. Demak Ahmad Donish muallilar ahloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U muallimdan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qoyishni talab qiladi. Mudarris o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustilarida ko'p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish

^{2- 80} A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 329-b

³⁻ A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 328-b

⁴⁻ A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 365-b

A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 154-b

muallimlik-mudarrislik kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal ahloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal sifati deb biladi. Ma'lumki, inson hayoti o'leovlidir. Shuning uchun vaqtning qadriga yetgan, uni hurmat qilgan kishi o'zini, umrini hurmat qilgan hisoblanadi. Inson umri, vaqt, sabr-toqat kabi ahloqiy tushunchalar ham Ahmad Donishning " Navodir ul vaqoe " asarida ham alohida to'xtaladi:

“ Uning kengchilik kunlarini ko'rsanglar quvonib unga aldanmanglar: agar torchilikka yoliqsanglar, balki shukr va sabr qilinglar. Yengil va o'g'irlikda bandalikda qo'ladan bermanglar”⁸⁴. Mutafakkir; inson har qanday qiyinchilikka bardosh berib, sabr qilsa, qalbida ziyo paydo bo'lib, zulmatdan nurga chiqadi. Sabrli inson doimo yaxshilikka intiladi. Sabrsiz inson toqatsizligi tufayli o'zini har tomonga uradi va oqibatda boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Keyin o'z-o'zidan muammolar paydo bo'laveradi. Turli xastaliklar, ko'ngilsiz oqibatlar kelib chiqadi. Sabr deganda alamlarga, tuhmatu bo'xtonlarga bardosh qilish tushuniladi. U nafsni qayg'udan, tilni shikoyatdan himoya vazifasini bajaradi degan goyalarni ilgari suradi. Yana allomaning uqtirishicha umr yoli pats-balandliklardan, to'g'rilik va egriliklardan iborat bo'ladi. Inson to'qlikka ham, ochlikka ham, g'laba va mag'lubiyatga ham ga'm – tashvishga ham-barchasiga duch keladi. Bular sinov bo'lib, ulardan ranjimaslik kerak. Ahmad Donishning yuqorida keltirgan purhikmat so'zlari uchunchi renasans yoshlari kamoloti muammolariga so'zsiz yechim bo'la oladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

1. Naimov.I. Issues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish “ Meyor-ul-tadayun”// International journal of Intellectual and Cultural Heritage.- Volume”Issue:02/2022. –P. 169-175.
2. Naimov. I. Meyor-ut-tadoyyun - diniy-axloqiy manba sifatida // Islom ziyosi-Toshkent, 2021. -№ 2.-B. 46-54.
- 3 Аҳмад Дониш. Наводирул вақое/Нодир воқеалар. – Тошкент: Фан, 1964 й. – Б. 361. (Ahmad Donish. Navodirul vaqoe / Rare events. - Tashkent: Science, 1964. - P. 361.)
4. Abdullaev V., Inomov.M., Abduraxmonov.SH. Navodir ul-vaqoedagi g'oyalar va zamonamiz./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007. 220b.
5. Afoqova.N. "Navodir ul-vaqoe" tarkibidagi she'riy matnlarga oid dastlabki kuzatishlar./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007.-B.23.

⁸⁴ A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 186-b